“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Intellektual mulk sohasida davlat siyosati va uning milliy iqtisodiyot rivojiga ta’siri

Farhod Xoliqnazarov,,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi sirtqi magistraturasi tinglovchisi
e-mail: fholiqnazar@gmail.com

Аннотация. Maqolada intellektual mulkning global va milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida uning ahamiyati keng yoritilgan. AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasida innovatsion infratuzilmalar, texnologiyalar transferi va universitetlar roli tahlil qilinib, intellektual mulkni muhofaza qilishda mamlakatlar o‘rtasidagi farqlar va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda intellektual mulk sohasini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasi, milliy patent tizimi va xalqaro hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan.

Калит сўзлар. Intellektual mulk, raqamli iqtisodiyot, patent tizimi, texnologiyalar transferi, intellektual mulkni himoya qilish, huquqni qo‘llash amaliyoti, xalqaro tajriba, milliy iqtisodiyot, innovatsion infratuzilma.

Аннотация. В статье широко освещается роль интеллектуальной собственности в глобальной и национальной экономике, особенно её значение в условиях цифровой экономики. Проанализирован опыт развитых стран, таких как США и Япония, в части развития инновационной инфраструктуры, трансфера технологий и роли университетов, показаны различия в подходах к защите интеллектуальной собственности и их влияние на экономический рост. Раскрыто значение законодательной базы, национальной патентной системы и международного сотрудничества в развитии сферы интеллектуальной собственности в Узбекистане.

Ключевые слова. Интеллектуальная собственность, цифровая экономика, патентная система, трансфер технологий, защита интеллектуальной собственности, правоприменительная практика, международный опыт, национальная экономика, инновационная инфраструктура.

Annotation. The article provides a comprehensive analysis of the role of intellectual property in both the global and national economy, with a particular emphasis on its significance in the digital economy. The experience of developed countries such as the United States and Japan is examined in terms

of the development of innovation infrastructure, technology transfer, and the role of universities, highlighting the differences in the protection of intellectual property across countries and their impact on economic growth.The article also reveals the importance of the legislative framework, the national patent system, and international cooperation in developing the sphere of intellectual property in Uzbekistan.

Keywords. Intellectual property, digital economy, patent system, technology transfer, protection of intellectual property, law enforcement practice, international experience, national economy, innovation infrastructure.

Intellektual mulk jahon iqtisodiyotining murakkab va muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bundan 30–40-yil muqaddam uning ahamiyati nisbatan cheklangan bo‘lib, asosan sanoat, xizmatlar hamda ilm-fanning ayrim sohalari bilan bog‘liq edi. XXI asrda esa raqamli iqtisodiyotning jadal yangilanishi va taraqqiyoti sharoitida intellektual mulkning o‘rni yanada ortib, ushbu sohalardan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya, internet platformalarining rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalar intellektual mulkka bo‘lgan talabni oshirib, uning bozordagi ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Intellektual mulk ijodiy va innovatsion faoliyat natijasi sifatida mualliflarga huquqiy himoya orqali moliyaviy foyda keltiradi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi intellektual mulkni muhofaza qilish va undan foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ayni jarayonda intellektual mulk raqamli mahsulotlar, kontent va xizmatlarni himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Yalpi ichki mahsulot o‘sishining dinamikasi hamda milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligi fuqarolik muomalasida intellektual faoliyat natijalarining qay darajada jalb etilishi, ularning qiymati va aylanish tezligiga bevosita bog‘liq. 2025-yilgacha bo‘lgan davrda intellektual huquqlar aylanishida intellektual mulk va raqamli infratuzilmalar milliy iqtisodiyot o‘sishini hamda mamlakatning jahondagi ta’sirini belgilaydigan asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun zarur shart-sharoitlar global raqamli tarmoqlarning rivojlanishi orqali yaratilgan bo‘lib, ularning 70 foizdan ortig‘i intellektual mulk obyektlarining harakati hissasiga to‘g‘ri keladi.

Intellektual mulk instituti zamonaviy global iqtisodiyotning yadrosi sifatida “moddiy” bozorlar o‘sish sur’atlaridan yuqori darajada, yiliga 10 foizdan ortiq o‘smoqda (Xitoy – 23%, AQSh – 5%, Fransiya – 2%, Rossiya – 5%).

Shubhasiz, ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lish mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Jahon savdo tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, intellektual mulk obyektlari savdosida AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Yaponiya yetakchilik qilmoqda. Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar esa keyingi o‘rinlarni egallagan. Bunga ko‘p jihatda AQSh n davlat siyosatining kuchli raqobatni yuzaga keltirishga, ishlab chiqarishga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

innovatsiyalarni faol joriy etishga yo‘naltirilgani bilan erishilmoqda.

Innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash borasida turli davlatlarda o‘ziga xos tajriba shakllangan. Jumladan, AQSh universitetlarida innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunday infratuzilmalar doirasida ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirilib, texnologiyalar transferi amalga oshiriladi, ya’ni ular ishlab chiqarishga keng joriy etiladi. Mamlakatda 1980-yilda Bey-Doul qonuni qabul qilinishi innovatsion jarayonlarning jadal rivojlanishiga, universitetlarning o‘z ilmiy ishlanmalari orqali daromad olishiga keng imkoniyat yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida AQShda universitetlar, sanoat korxonalari va investorlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlovchi tizim shakllantirildi. Ayniqsa, Kaliforniya texnologiya instituti, Stenford universiteti hamda Massachusets texnologiya instituti tajribasi alohida e’tiborga loyiq.

Xususan, Kaliforniya texnologiya instituti aniq fanlar va muhandislik sohasidagi yetakchi ta’lim muassasalaridan biri bo‘lib, unda tadqiqotlarga homiylik qilish ofisi, texnologiyalar transferi ofisi hamda tadbirkorlar klubi kabi innovatsion infratuzilmalar tashkil etilgan. Stenford universitetida esa asosiy innovatsion infratuzilma sifatida texnologiyalarni litsenziyalash ofisi faoliyat yuritadi bo‘lib, uning asosiy vazifasi universitetning intellektual mulkini boshqarishdan iborat. Massachusets texnologiya institutida ham texnologiyalarni litsenziyalash ofisi va tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan boshqa tuzilmalar mavjud.

Yaponiyaning ushbu sohadagi tajribasi ham ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘lishi mumkin. Ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishga erishishida chet el innovatsiyalarini faol qo‘llash muhim o‘rin tutgani ma’lum.

XX asrning 80-yillariga kelib, Yaponiya iqtisodiy siyosati o‘z ilmiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Xususan, 1983-yilda texnopolislarni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, milliy texnoparklarni rivojlantirish maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan maxsus dasturlar qabul qilindi. Mazkur islohotlar natijasida dastlab 100 dan ortiq texnoparklar tashkil etildi.

Texnoparklar ishbilarmonlik muhiti bilan ilmiy-texnika sohasi o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga xizmat qildi. E’tiborli jihati shundaki, Yaponiya texnoparklarining qariyb 70 foizi hududlarda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ularning 58 foizi yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekistonda ham intellektual mulkni muhofaza qilish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda intellektual mulkni muhofaza qilishning huquqiy bazasi shakllantirilgan bo‘lib, ushbu sohada 10 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta qarori, hukumatning 7 ta qarori hamda 15 ta idoraviy me’yoriy-huquqiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hujjat qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston intellektual mulkni himoya qilish sohasidagi 12 ta xalqaro hujjatga, 8 ta davlatlararo, 10 ta hukumatlararo va 17 ta idoralararo shartnoma hamda bitimlarga qo‘shilgan.

Mamlakatimizda milliy patent tizimining yaratilgani va xalqaro tashkilotlar bilan uyg‘unlikda faoliyat yuritilayotgani ilmiy-texnika yangiliklarini innovatsion tadbirkorlikka tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Jahon intellektual mulk tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida patentlashtirish va tovar belgilari ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha uchinchi o‘rinni egallaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda intellektual mulk huquqini himoya qilish sohasidagi muammolar normativ-huquqiy asoslarning yetarli emasligi yoki amaldagi qonunchilikning umume’tirof etilgan tamoyillarga mos kelmasligi bilan emas, balki asosan mavjud huquqiy hujjatlarni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq. Bu holat bir qator obyektiv va subyektiv sabablar, jumladan, fuqarolarning huquqiy bilim va huquqiy madaniyati darajasining pastligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, intellektual mulk sohasida qonunlarni takomillashtirish va rivojlantirish muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulkni tartibga solish, muhofaza qilish va rivojlantirish uchun milliy qonunchilik hamda xalqaro-huquqiy asoslar yetarli. Biroq amaliyotda ushbu normalarni sudlar, huquq-tartibot organlari va huquqni qo‘llashning boshqa yo‘nalishlarida samarali ta’minlash bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur muammo ko‘p qirrali bo‘lib, uning yechimi moddiy-texnik, moliyaviy, huquqiy va hatto psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Intellektual mulk huquqini ishonchli himoya qilish tizimini hozircha to‘liq samarali deb baholash qiyin. Rivojlangan davlatlarning ushbu sohadagi ilg‘or amaliyoti qanchalik mukammal bo‘lmasin, uni mamlakatimizning huquqiy tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. Chunki qonunlarning mukammalligi o‘z-o‘zidan yetarli bo‘lmay, huquqni qo‘llash tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va fuqarolarning huquqiy madaniyati darajasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta’kidlash joizki, intellektual mulk huquqi bo‘yicha maxsus sudning mavjudligi mazkur tizimning samarali ishlashini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Maxsus sudlarda ishlar ko‘rib chiqilishi sudyalarning intellektual mulk sohasida ixtisoslashuviga, ularning chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu esa sud qarorlari sifati oshishiga, qonunga zid yoki yetarlicha asoslanmagan qarorlar qabul qilinishi oldini olishga, shuningdek, sud amaliyotining barqarorligi va huquqiy uyg‘unligini ta’minlashga olib keladi. Natijada turli talqin va tushunmovchiliklar kamayishiga erishiladi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

sud-huquq tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Yagona O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tashkil etilishi, ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlar hamda iqtisodiy sudlarning faoliyat yuritishi intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilishda, ayniqsa, ushbu sohada sud amaliyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Okyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. - T.: TDYI, 2004. B. 421.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi F-4849-sonli “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. www.ima.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining rasmiy sayti.
5. www.wipo.int – Butunjahon intellektual mulk tashkilotining rasmiy sayti.